# TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARI MUAMMOSINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

**Maxammadiyev Elyor Zoirovich**
**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**
**Siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi**
**Tel: (97) 931-37-07**

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishning siyosiy-huquqiy asoslari, mintaqa davlatlari o‘rtasidagi manfaatlar muvozanati, suv diplomatiyasining rivojlanish tendensiyalari hamda suv xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Amudaryo va Sirdaryo havzalari misolida suv taqsimoti muammolari va ularni hal etish bo‘yicha institutsional mexanizmlar yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** transchegaraviy suv resurslari, suv diplomatiyasi, Markaziy Osiyo, suv xavfsizligi, siyosiy mexanizmlar, mintaqaviy hamkorlik.

**Kirish.** Suv resurslari XXI asrda global xavfsizlikning muhim omillaridan biriga aylandi. Ayniqsa, iqlimi qurg‘oqchil bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasida suv tanqisligi iqtisodiy rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik barqarorlik hamda davlatlararo munosabatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Mintaqa davlatlarining asosiy suv manbalari Amudaryo va Sirdaryo havzalari bo‘lib, ularning transchegaraviy xarakteri suv resurslaridan foydalanish masalasini siyosiy va institutsional jihatdan murakkablashtiradi. Shu sababli, suv xavfsizligini ta’minlash Markaziy Osiyo davlatlari uchun strategik ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari tabiiy-iqlim sharoitlari sababli suv resurslariga yuqori darajada bog‘liq mintaqalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo havzalarining transchegaraviy xarakterga ega bo‘lishi suv resurslarini boshqarish masalasini nafaqat iqtisodiy yoki ekologik, balki muhim siyosiy omilga ham aylantiradi. “Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q”. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqidan ta’kidlab o‘tadi[1]. Mustaqillikdan keyin mintaqa davlatlari suvdan foydalanish masalasida turli iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini tanladi: yuqori oqimdagi davlatlar (Qirg‘iziston va Tojikiston) gidroenergetika manfaatlariga tayanayotgan bo‘lsa, quyi oqimdagi

davlatlar (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston) irrigatsiya va qishloq xo‘jaligi ehtiyojlarini ustuvor deb hisoblaydi. Ushbu manfaatlar farqi transchegaraviy suv siyosatida murakkab siyosiy muvozanatni talab etadi. Markaziy Osiyo davlatlarining barchasida suv resurslari mintaqa doirasida bir tekis taqsimlanmagan. Katta maydonlarini cho’l zonasi egallagan Qozog’iston, Turkmaniston va O’zbekistondagi suv resurslarining asosiy manbayi qo‘shni tog‘li mamlakatlar Tojikiston hamda Qirg‘iziston hisoblanadi. Bu hol esa qurg‘oqchil hisoblangan mintaqa mamlakatlari zimmasiga suv resurslaridan oqilona foydalanish, barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga olgan holda suv boyliklarini to‘g‘ri taqsimlashdek dolzarb vazifani qo‘yadi[2].

Shu asnoda keltirish joizki, transchegaraviy suv resurslari mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni belgilovchi strategik resurs hisoblanadi. Markaziy Osiyoda mavjud suv resurslarining 80 foizga yaqini yuqori tog‘ hududlarida shakllanadi, ammo asosiy iste’molchilar quyi oqim davlatlari hisoblanadi. Bu holat suv resurslaridan foydalanish masalasini davlatlararo muzokaralar, mintaqaviy tashkilotlar faoliyati va xalqaro huquq normalari bilan tartibga solishni taqoza etadi. Suv resurslari ustidan samarali nazorat masalasi ko‘plab davlatlarning milliy xavfsizlik strategiyalarida ham muhim o‘rin egallaydi. Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarishning institutsional asoslari mintaqada transchegaraviy suv resurslarini boshqarish maqsadida bir qator mintaqaviy institutlar tashkil etilgan. Jumladan:

Davlatlararo suv xo‘jaligi komissiyasi (ICWC);

Xalqaro Orolni qutqarish jamg‘armasi (IFAS);

Havza tashkilotlari (BVO “Amudaryo” va BVO “Sirdaryo”) mazkur institutlarning asosiy vazifasi suv resurslarini taqsimlash, monitoring qilish va davlatlar o‘rtasida kelishuv mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat[3]. Biroq amaliyotda ushbu institutlarning samaradorligi moliyaviy resurslar cheklanganligi, siyosiy manfaatlar farqi hamda majburiy mexanizmlarning yetarli emasligi sababli to‘liq darajada ta’minlanmoqda. Bugungi kunda suv diplomatiyasi va siyosiy muzokara mexanizmlari so‘nggi yillarga nisbatan mintaqada yangi bosqichi shakllantirmoqda. Shu o‘rinda bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida davlat rahbarlari darajasidagi muntazam uchrashuvlar, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama kelishuvlar suv masalalarini siyosiy jihatdan hal etish tendensiyasini kuchaytirmoqda. Suv diplomatiyasining asosiy mexanizmlariga quyidagilar kiradi:

Davlatlararo komissiyalar orqali kvotalar asosida suv taqsimoti;

Energiya-suv almashinuvi mexanizmi (qishda elektr energiyasi, yozda suv yetkazib berish);

Mintaqaviy monitoring va ma’lumot almashish tizimlari;

Xalqaro tashkilotlar vositachiligida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish[4]. Bu mexanizmlar mintaqada suv mojarolarining oldini olishga xizmat qilmoqda, biroq ular hali ham uzoq muddatli barqaror huquqiy tizimga to‘liq aylangani yo‘q. Suv xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishi, aholi sonining o‘sishi va irrigatsiya tizimlarining eskirganligi suv tanqisligi muammosini yanada keskinlashtirmoqda. Markaziy Osiyo mintaqada suv tanqisligini hisobga olgan holatda suv xavfsizligi masalasi o‘ta jiddiy masala hisoblanadi. Jumladan, suv xavfsizligiga ta’sir qiluvchi omillar bir necha guruhga bo‘linadi. Birinchidan, iqlim o‘zgarishi natijasida muzliklarning qisqarishi va yog‘in miqdorining kamayishi suv resurslari hajmining pasayishiga olib kelmoqda. Bu jarayon uzoq muddatda daryolar oqimining kamayishi xavfini kuchaytiradi. Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligida suvdan samarasiz foydalanish muhim muammolardan biridir. Sug‘oriladigan yerlar ulushining yuqoriligi va eskirgan irrigatsiya tizimlari suvning katta qismi yo‘qotilishiga sabab bo‘lmoqda. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra, sug‘orish tizimlarida suv yo‘qotilishi 30–40 foizgacha yetadi. Uchinchidan, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalasida yuqori oqim va quyi oqim davlatlari manfaatlarining mos kelmasligi ham muammolarni keltirib chiqaradi. Yuqori oqim davlatlari gidroenergetika rivojlanishiga, quyi oqim davlatlari esa sug‘orish uchun suvning barqaror yetkazib berilishiga ko‘proq manfaatdor. Bu esa suv resurslarini taqsimlashda kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. To‘rtinchidan, suvning ifloslanishi ham suv xavfsizligiga jiddiy tahdid hisoblanadi. Sanoat chiqindilari, qishloq xo‘jaligi kimyoviy moddalarining suv havzalariga tushishi suv sifatining yomonlashuviga olib kelmoqda[5].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalasi mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, suv resurslaridan oqilona foydalanish yuzasidan mintaqaviy xsuv xavfsizlik masalasi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Suv resurslarini samarali boshqarish davlatlararo siyosiy ishonch, institutsional hamkorlik, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy – siyosiy muammolarni hal etishi va zamonaviy texnologik yondashuvlarni nazorat qilishi mumkin. Kelajakda suv diplomatiyasini kuchaytirish, mintaqaviy huquqiy bazani takomillashtirish hamda integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Шулц В.Л., Машрапов Р. Ўрта Осиё гидрографияси, Тошкент, 1969.– 327 б.
2. http://sic.icwc-aral.uz Markaziy Osiyo davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv komissiyasi rasmiy sayti.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti yangilangan umumiy mamlakat tahlili: O’zbekiston. Toshkent – 2021 yil. https://uzbekistan. un.org/en/ download/68186/126438.
4. Марказий Осиё ва қўшни минтақалардаги трансчегаравий ҳудудлар: ҳамкорлик имкониятлари ва муаммолари. I қисм. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари (Самарқанд, 2022 йил 5-6 май). – Самарқанд, 2022. – 237 б.
5. “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni” №837-XII, 06.05.1993.